

O'ZBEK TILI IQTISODIYOT TERMINLARINING SHAKL-XUSUSIYAT O'XSHASHLIGI ASOSIDA YUZAGA KELISHI

Habibjonov Ikromjon Toshpulat ug'li,

Qo'qon davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

E-mail: Mybooks91@mail.ru

Annotatsiya. Tilshunoslikda metaforani o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar turli lingvistik sohalarda amalga oshirilgan. Alohida til birliklarida metaforaning namoyon bo'lishini asoslashdan boshlangan izlanishlar bugungi zamonaviy tilshunoslikda til orqali dunyoning bilishda metaforaning ishtirokini aniqlash aspektida davom etmoqda.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, termin, iqtisodiyot, metafora, tadqiqot, mohiyat.

Hozirgi tilshunoslik metaforaning Aristotelning "Poetika" asaridagi talqinidan ko'ra kengroq tushunadi, ko'plab tadqiqotchilar metaforaning bilish jarayonidagi o'rnini e'tirof etadilar. "XX asr boshlariga kelib, kognitiv tilshunoslikning shakllanishi va jadal rivojlanishi bilan metaforaning ko'p qirrali, nihoyatda murakkab hodisa ekanligi tan olinib, fundamental bilish faoliyatining namoyon bo'lishi sifatidagi mohiyati ochib berildi"¹.

Aristotel metaforaning nominativ funksiyasiga e'tibor qaratib, "ayrim tushunchalar uchun tilda mos so'zlar mavjud emas, ammo unga to'g'ri keladigan ifodani topish mumkin. Masalan, *urug' ekmoq* o'rniga *urug' tashlamoq* deyiladi, quyoshning nur sochishi uchun ham tegishli so'z yo'q (yunon tili nazarda tutib aytilgan). Biroq *tashlamoq* so'zining quyosh nurlariga nisbatan munosabati *ekmoq* so'zining *urug'ga* bo'lgan munosabati o'xshash bo'lgani sababli shoir *ilohiy nurni ekib*" deb yozadi.² Aristotel misol keltirilgan o'xshatishda harakatlar o'rtasidagi o'xshashlik asosiy rol o'ynagan va metaforik nominatsiyani ta'minlagan. Til uslublarini o'rgangan olim M. Brandes ham metaforaning nominatsiya jarayonidagi o'rnini ta'kidlaydi hamda uni narsa-predmetlarning sifat-xususiyatlari asosida asl nusxa va nom ko'chayotgan obyekt o'rtasidagi tashqi o'xshashlikka ko'ra hosil bo'ladigan ikkilamchi nominatsiya imkoniyati deb izohlaydi³.

Agar M. Brandes izidan borib, terminologiyadagi metafora tadqiq qilinsa, o'zbek tili egalarining ilmiy tafakkuri natijalarini metaforizatsiya yordamida ifodalanishi bo'yicha aniq xulosalarga kelish mumkin. O'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasida metaforik terminlarni o'rganish orqali biz ana shunday xulosalarni taqdim qilmoqchimiz.

O'zbek tilidagi bir qator so'zlarning qo'llanishi doirasi kengayib, iqtisodiyot terminologiyasiga o'tgan. Avval umumiste'mol so'zi sifatida qo'llab kelingan so'zlar

¹ Мусаева Ф. Ўзбек шеваларида метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2019. - № 4. – Б. 112.

² Аристотель. Поэтика. – Минск: Литература, 1988. – С. 1098-1099.

³ Брандес М.П. Стилистика текста. – М., 2004. – С. 370.

terminologik tushunchani ifodalashga xoslanadi. Masalan, *ruxsatnoma* so'zi shakl o'xshashligi natijasida iqtisodiyot terminologiyasiga o'tgan. Ma'lumki, ushbu leksema adabiy tilda "ruxsat + noma" qolipida yasalgan bo'lib, "yozma ravishda berilgan ijozat, ruxsat" ma'nosini ifoda etadi. Ushbu ma'noni rivojlantirish orqali "mahsulot ishlab chiqarish, tarqatish, sotish yoki muayyan xizmat turini ko'rsatish yoki sotish uchun jismoniy va yuridik shaxslarga beriladigan hujjat" ma'nosi hosil qilingan. Ikkinchi ma'noning asosiy qismi bo'lgan hujjat bilan birinchi ma'noning asosiy qismi bo'lgan hujjat ham qog'oz shaklida bo'ladi. Ana shu shakliy o'xshashlik ruxsatnoma so'zini iqtisodiyot terminiga aylantirgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham iqtisodiyotga oid tushunchani ifodalashi qayd qilinadi: ...*chetga chiqariladigan mahsulot uchun ruxsatnoma berish tartibi anchagina soddalashtirildi*. Gazetadan (IV, 472).

Mustaqillik davrida ko'plab umumqo'llanishdagi so'zlardan terminologiyani boyitishda foydalanildi. N.Mahmudov maqolalaridan birida mazkur masalaga to'xtalib, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi *uy* so'zining nashriyot ishiga oid tushunchani atashga xizmat qildirilgani va terminlik xususiyatini olganini aytadi. Fikrini dalillash maqsadida "nashriyot-matbaa ijodiy uyi" terminini misol qilib keltiradi. Biz ham olimimizning ushbu qarashiga to'liq qo'shilamiz hamda *uy* so'zining istiqloq yillarida iqtisodiyot terminologiyasining ham terminiga aylanganini qo'shimcha qilamiz. Sohaviy lug'atlarda *aksept uyi* termini qayd qilingan bo'lib, u termin sifatida "Tashqi oldi-sotdini kreditlashga yo'naltirilgan bank muassasasi"⁴ ma'nosini anglatishi keltiriladi. Ushbu birikma terminni hosil qilishda tarkibidagi *uy* so'zida ikkilamchi nominatsiyaning metaforik turi qatnashgan, shakl o'xshashligi asosida terminologik tushuncha *uy* so'zi bilan qayta noomlangan. Ya'ni "depozitssuda operatsiyalari, tijorat veksellari yoki eksportchilar trattalari kabi bank amaliyot o'tkaziladigan bino" bilan umumadabiy tildagi *uy* o'rtasida sahkliy o'xshashlik mavjudligi topilgan.

Ma'lumki, "...semantik yo'l bilan termin hosil bo'lishida polisemiya turlarining barchasi ham faol qatnashmaydi. Bunda, ayniqsa, metafora alohida rol o'ynashini uqtirib o'tmoqchimiz... Ilmiy-texnik terminologik tizimda ham metaforik o'xshatish asosida hosil bo'lgan juda ko'p terminlar mavjud. Umumadabiy yoki jonli tildagi muayyan so'zning biror xususiyatini, shaklan o'xshashligini, rang-tusidagi bir xillikni va hokazolarni asos qilib olish tufayli mana shunday yangi-yangi terminlar vujudga kelaveradi"⁵. Chunki "insonning dunyoni bilishida qiyoslash benihoya katta o'rin tutadi... Ta'kidlash lozimki, qiyoslash bilingan narsa-xususiyat vositasida bilinmagan narsa-xususiyatni osonlik bilan bilish imkonini beradi"⁶. Quyida buni *da'vo* termini asosida ko'rib o'tamiz.

Ma'lumki, muayyan fan sohasida paydo bo'lgan va qo'llanayotgan terminlar ham metaforik tarzda ko'chma ma'noda ikkinchi bir soha doirasiga olib kiriladi. Bu

⁴ Мухамедова С., Ширинова У., Наримова Г. Банк-молия терминларининг ўзбек тилидаги изоҳли луғати. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – Б.13.

⁵ Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент, 1977. 80-бет.

⁶ Махмудов Н., Худойбергенова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. 4 – 5-бетлар.

jarayon keyingi fan sohasining yangi termin bilan boyishiga sabab bo'ladi, ya'ni semantik usulda yangi termin hosil qilinadi. Masalan, o'zbek kimyo terminologiyasida boshqa bir qator terminologik sistemalarga doir terminlar yangi kimyoviy ma'nolarda qo'llanmoqda"⁷. Iqtisodiyot terminologiyasi ham shu kabi qayta terminlashishning metaforik usuli bilan boyigan. Jumladan, huquq fanida *da'vo* [arab. – arz, shikoyat, iddao] termini mavjud bo'lib, "buzilgan haq-huquqini talab qilish yoki uni himoya etish haqida huquqni himoyalovchi tashkilotlarga qilinadigan murojaat, arz" (O'TIL, I, 811) ma'nosini ifodalaydi. Mazkur ma'nodagi "buzilgan huquqni tiklash talabidagi murojaat" iqtisodiyotdagi mijozning iste'molchilik huquqi buzilganda yozilgan arizasi" tushunchasiga o'xshash bo'lgani sababli qayta terminlashtirilgan. *Da'vo* iqtisodiyot termini sifatida "kredit beruvchi, xaridor, buyurtmachi va mijozning qarzni to'lash, zararni qoplash, aniqlangan kamchiliklarni, sotib olingan tovaridagi yoki bajarilgan ishdagi nosozliklarni bartaraf qilish haqida arizasi (IAIL, 73) ma'nosini ifodalaydigan bo'lgan. Huquqshunoslik va iqtisodiyot termini bo'lgan *da'vo* termini turli ma'nolarni bildirsa-sa, shaklan arizadir.

Iqtisodiyot terminologiyasida asosiy tushunchalar abstrakt xarakterli bo'lgani sababli shakl o'xshashligi asosida termin hosil qilish kam kuzatiladi. Aksincha, xususiyat o'xshashligiga ko'ra metaforik termin yuzaga kelishi hodisasi faol jarayondir. Shunday terminlardan biri sifatida qarz terminini olib ko'raylik. O'zbek tilidagi *qarz* so'zi XX asrning oxirlaridan boshlab semantik strukturasi kengaytirib, terminlashgan. "O'TIL"da bu so'zning to'rtta ma'nosi berilgan bo'lib, ularning hech biri iqtisodiyotga xos deb qayd etilmaydi: 1. Ma'lum muddat o'tgandan keyin qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingan pul, buyum, g'alla va sh.k. *Qarz(ga) bermoq*. 2. Ishlatganlik, foydalanganlik uchun to'lanadigan narsa (asosan, pul). *Soliq qarzlari*. 3. *ko'chma* Kimsaning zimmasidagi vazifa, majburiyat, burch. 4. *ko'chma* Ado etilishi, bajarilishi shart bo'lgan ish, vazifa (IV, 73). Aslida ushbu so'z iqtisodiyot terminiga aylanib bo'lgan va sohaviy lug'atlarga kiritilgan. Xususan, ushbu so'zning birinchi ma'nosini rivojlantirish bilan iqtisodiyot tarmoqlarida "ma'lum shartlarda, shu jumladan, foizli yoki foizsiz belgilangan muddatga olingan, qaytarilishi kerak bo'lgan pul yoki boshqa tovar moddiy aktivlar miqdori" (IAIL, 265)ni ifodalaydi. Ya'ni "ma'lum muddat o'tgandan keyin qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingan pul, buyum, g'alla va sh.k." ma'nosini rivojlantirish bilan iqtisodiyotda bankdan foizli yoki foizsiz qaytarish shartida olingan mablag'" ham *qarz* deyiladigan bo'lgan. Ma'no taraqqiyoti natijasida terminlashishni birinchi ma'nodagi "qaytarish sharti bilan olingan pul" tarzidagi o'xshashlik ta'minlagan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Мусаева Ф. Ўзбек шеваларида метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2019. - № 4.
2. Аристотель. Поэтика. – Минск: Литература, 1988.

⁷ Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси муаммолари. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2017. – Б. 122.

3. Брандес М.П. Стилистика текста. – М., 2004.
4. Мухамедова С., Широнова У., Наримова Г. Банк-молия терминларининг ўзбек тилидаги изоҳли луғати. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
5. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент, 1977.
6. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
7. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси муаммолари. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2017.
8. Habibjonov, I. Tax system terms in Kokand Khanate, Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 2020, 12(2), pp. 2906–2909. 2.
9. Habibjonov, I. Syntactic design of Uzbek tax and customs terminology, Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 2020, 12(2), pp. 2910–2915